

TA'LIMDA KREATIV VA TANQIDIY YONDASHUV FAOLIYAT MAZMUNI

Toxirov Abrorbek Axrorovich**Andijon davlat pedagogika instituti Matematika kafedrası o'qituvchisi****G'aniyeva Malika Murodjon qizi-****Andijon davlat pedagogika instituti Matematika yo'nalishi 1-kurs talabasi****Alijonova Zulxumor Nodirjon qizi****Andijon davlat pedagogika insituti Matematika yo'nalishi 1-kurs talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15123349>**

Annotatsiya: Bugungi kunda mamlakatimiz O'zbekistonda ta'lim sifatini yanada takomillashtirish va tubdan isloh qilish bo'yicha bir qancha strategiyali yondashuvlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, ta'limda kreativ va tanqidiy yondashuvning dolzarbligi ham diqqatimiz markazidan joy olmoqda. Bu yondashuv asosida bo'lajak pedagog kadrlar salohiyatini yanada oshirish va ta'lim sifati samaradorligini takomillashtirish mumkin. Ushbu maqolada ta'limda kreativ va tanqidiy yondashuv innovatsion faoliyat mazmuni haqida to'liqligicha ma'lumot berib o'tilgan.

Абстрактный. Сегодня в нашей стране Узбекистане реализуется несколько стратегических подходов по дальнейшему повышению качества образования и фундаментальным реформам. Кроме того, в центре нашего внимания актуальность творческого и критического подхода в образовании. На основе такого подхода можно еще больше повысить потенциал будущих педагогических кадров и повысить эффективность качества образования. В данной статье творчески-критический подход в образовании в полной мере раскрывает содержание инновационной деятельности.

Abstract. Today, several strategic approaches are being implemented in our country Uzbekistan to further improve the quality of education and fundamental reforms. In addition, the focus of our attention is the relevance of a creative and critical approach in education. Based on this approach, it is possible to further increase the potential of future teaching staff and improve the efficiency of the quality of education. In this article, a creative and critical approach in education fully reveals the content of innovative activities.

Kalit so'zlar: Ta'lim, kreativ, tanqidiy yondashuv, innovatsiya, faoliyat, bilim, ko'nikma, malaka, globallashuv.

Ключевые слова: Образование, творческий, критический подход, инновации, деятельность, знания, навыки, компетентность, глобализация.

Keywords: Education, creativity, critical approach, innovation, activity, knowledge, skills, competence, globalization.

Kundan kunga rivojlanib borayotgan globallashuv davrida barcha sohalar qatori ta'lim sohasida ham tub o'zgarishlar olib borilmoqda. Yoshlarni malakali kadr qilib tayyorlash va ularning bilim ko'nikmalarini oshirish borasida bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan sa'y-harakatlar qatorida zamonaviy ta'lim tamoyillari, kreativ va tanqidiy fikrlash ham dolzarb ta'lim shakli sifatida qaralmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4199-sonli qarori natijasida yurtimizda tashkil etilayotgan Prezident maktablarida ta'limni davom ettirish niyatida bo'lgan o'quvchi-

yoshlarni imtihonga tayyorlashda aynan tanqidiy va kreativ fikrlashga doir bilimlarga ehtiyoj keskin oshdi.

Davlatimiz rahbari 2017-yil “iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasida” Bugun mamlakatimizning barqaror rivojlanish yo‘lida izchil ilgarilab borishini tahlil qilar ekanmiz, o‘tgan yili prinsipial muhim islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha qat‘iy qadamlar qo‘yildi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Bu islohotlarning asosiy maqsadi – aholi uchun munosib hayot darajasi va sifatini ta‘minlashdir. Jadal va barqaror rivojlanishga qaratilgan bu siyosat bundan keyin ham so‘zsiz davom ettiriladi. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbari – bu bosh vazir yoki uning o‘rinbosarlari bo‘ladimi, hukumat a‘zosi yoki hududlar hokimi bo‘ladimi, ular faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lib qolishi kerak. Endi har birimiz, eng avvalo, davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining vazifasi – o‘zimiz mas‘ul bo‘lgan soha va tarmoqda ishlarning ahvolini tanqidiy baholash asosida zimmamizga yuklatilgan vazifalarni mas‘uliyat bilan bajarishni ta‘minlashdan iborat. Shunday davr keldi”, - deya ta‘kidlab o‘tgani bejiz emas.

Ta‘limning asosiy vazifasi o‘quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo‘ladigan ko‘nikmalarni shakllantirishdir. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo‘lishi kerak bo‘lgan muhim ko‘nikmadir.

Tanqidiy fikrlash — bu ma‘lumot, vaziyatlar yoki muammolar haqida baholash, sintez qilish va asosli xulosalar chiqarishni o‘z ichiga olgan kognitiv jarayon. Bu shunchaki ma‘lumotni boricha qiymatida qabul qilish yoki rad etishdan tashqariga chiqadi. Ya‘ni, sodda qilib aytganda, siz berilgan ma‘lumotni “ha, shu ekan-da”, deb ketavermaysiz. Tanqidiy fikrlovchilar taxminlarni aniqlashga, noto‘g‘ri fikrlarni aniqlashga va to‘g‘ri xulosaga kelish uchun dalillarga asoslangan detallardan foydalanishga qodir bo‘lishlari kerak.

Bugungi jamiyatda rivojlanib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish va bilim darajasini jahon malaka talablariga mos ravishda o‘stirish, ularda kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb mavzusi sifatida qaralishi e‘tiborga loyiq tushunchadir.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi.

Dunyo miqyosida taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuch sifatida kreativlik e‘tirof etiladi. Atrofga boqsangiz, har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalari duch kelasiz: robotga aylangan kasblar, virtual reallik, ko‘k atirgul, tuproqsiz hosil olish va h.k. Bularning bari insonning tafakkuri mahsuli va insonning noodatiy fikrlashi, o‘tkir zehni, hech kim o‘ylamagan orginal g‘oyasi asosida, bir so‘z bilan aytganda «kreativligi» natijasida yuzaga kelgan desak xato bo‘lmaydi.

Xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarning mutaxassislari kabi o‘qituvchilarda ham kreativlik sifatlari mavjudligiga katta e‘tibor qaratiladi va uning darajasini aniqlab boruvchi test ham mavjud. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi faollik, tezkor fikrlash, o‘ziga xos (orginal)lik va takomillashganlik kabi mezonlar bo‘yicha baholash imkoniyatini yaratadi.

Tanqidiy fikrlash va kreativlik bilimlarining o'zlashtirilishi nafaqat amaliy ko'nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo'lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining yetarli darajada o'zlashtirilishi talab etadi.

Ta'lim jarayoniga kreativ va tanqidiy yondashuv innovatsiyasini olib kirish yoshlarning ilmiy salohiyatini va ta'limga bo'lgan qiziqishlarini tubdan o'zgartirib yuborishi tabiiy hol albatta. Innovatsion g'oyalarning yildan yilga takomillashib borishi natijasida kelajak yosh avlod uchun mustahkam poydevor yaratilmoqda. Kreativlik va tanqidiy innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirish natijasida minglab salohiyatli kadrlar yetishib chiqishi bu jahon hamjamiyati tomonidan tan olingan haqiqat hisoblanadi.

Xulosa

Ta'limda kreativlikning ahamiyati beqiyosdir. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish ularga nafaqat bilim olish, balki mustaqil va innovatsion yechimlar topish ko'nikmasini ham shakllantiradi. Kreativ yondashuv o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, ular bilimlarni chuqurroq o'zlashtirib, turli vaziyatlarda qo'llay olishadi. Shuningdek, kreativlik o'qituvchilarga ham yangicha pedagogik metodlarni qo'llash imkoniyatini yaratadi.

Ta'lim tizimida kreativlikni rivojlantirish uchun interfaol usullar, texnologik vositalar va muammoli vazifalardan keng foydalanish zarur. Shu bilan birga, o'quv muhitini qo'llab-quvvatlovchi va ijodkorlikka rag'batlantiruvchi sharoit yaratish muhimdir. Natijada, ta'lim jarayonida kreativ yondashuv nafaqat o'quvchilarning intellektual rivojlanishiga, balki ularning hayotiy muvaffaqiyatlariga ham katta hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar /Используемая литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni -T.: "O'zbekiston", 2020 yil 23 sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo'llabquvvatlash to'g'risida"gi 2017 yil 5 iyuldagi PF-5106 son Farmoni
3. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nuqti (<https://www.gazeta.uz>)
4. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти Т.: 975- bet.
5. Ortiqov O.R. O'QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA VA KOMPENTLIKNING ROLI VA AHAMIYATI //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 5. – С. 42-47.